ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ISLOMIY PAREMALOGIK RELIGIONIMLAR

To'ychiyeva Zulayho Hamroqo'lovna,
Guliston davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Din (religio – lotincha so'z bo'lib, "vijdonlilik, taqvo" degan ma'noni bildiradi) – ijtimoiy ong shakli; dunyoqarash, g'ayritabiiy olam va hamma narsani yaratuvchi va yaratayotgan g'ayritabiiy mavjudotlar (ruhlar, xudolar) mavjudligiga ishonish bilan belgilanadigan axloqiy me'yorlar va xatti-harakatlar...[1]

Islom arabcha so'z bo'lib, ollohga sig'inish, itoat qilish, itoatkorlik degan ma'nolarni anglatadi. Dunyoda eng keng tarqalgan dinlardan biri – musulmonlar dini[2].

Diniy leksika yoki religionim bu diniy tushunchalarni anglatuvchi so'z yoki so'zlar guruhi nomidir. Rus tilshunosligida bu tushuncha "diniy leksika", "cherkovga oid leksika" va "injil leksikasi" kabi alohida guruhlarda o'rganiladi, bu tushunchalarning o'zaro munosabati hanuzgacha muammoligicha qolib ketyapti.

Religionim unutilayotgan diniy leksikaning qaytadan tug'ilishidir. Uni ishlatishda so'zlovchining yoshi hal qiluvchi, muhim omil sanaladi. Yaxshi ta'lim olgan yoshi katta avlod nutqi kitobiy va eskirgan so'zlar bilan xarakterlanadi.

Paremalogiya yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "paromia" – hikmatli so'z, zarbulmasal, "logiya" – fan, ta'limot kabi ma'nolarini anglatadi. Paremalogiya ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni paremalarni o'rganadigan fan.

2. Muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar – paremalar tizimi.

Islomiy religionimlarni tadqiq qilar ekanmiz, maqollar va matallarda tadqiqot obyektimizning qo'llanilishi to'g'risida to'xtalmasdan o'tish mumkin emas. O'zbek tilida diniy sohada qo'llaniladigan bir qator maqollar va matallar xalqning diniy e'tiqodining ko'rsatkichi sifatida gavdalanib uning islom bilan uzviy aloqasini, diniy qarashlarni, urf-odat, hatto irim-sirimlarni o'zida namoyon qiladi.

"Til bilan, inson ishlatadigan so'z bilan hazillashish mutlaqo mumkin emas, insonning so'z nutqi jismi va qalbi o'rtasidagi moddiy bog'liqlikdir" deya ta'kidlaydi rus tilshunosi Vladimir Dal[3]. Aynan so'z axloqiy, diniy va madaniy sifatlarni ifodalaydi.

So'zning religionim, konfessionalizm kabi turlari mavjud. Bugungi kun avlodi jamiyatning ma'nan qayta tug'ilishi, to'g'rirog'i, islom dinining lisoniy shaklda ham qayta tug'ilishi davrida yashayapti.

Jamiyatda qanday madaniyat hukm surishiga qarab uning tili o'zgaradi. Uzoq yillar islom dini va u bilan bog'liq har qanday narsa qattiq bosim va tazyiqlar ostida qoldi. Holbuki, aynan diniy til lug'at tarkibining diniy leksikasini xalq madaniyatiga qo'yilgan chin ma'nodagi haykal deb baholash mumkin.

Til o'zida xalq ruhini aks ettiruvchi muayyan lisoniy jamoaning milliy xususiyatlari haqida ma'lumot saqlaydi. Bunda til birliklaridan sanalgan maqollarning lingvokulturologik ahamiyati katta.

Til uning sohibining milliy-madaniy urf-odatlari va xalqning an'analari olamning lisoniy manzarasini shakllantirib avloddan avlodga yetkazib beradi. Olamning lisoniy manzarasi til, uning birliklari va kategoriyalari orqali anglashiladigan bilimga asoslangan olam manzarasidir[4].

Maqol va matallar til birliklarining tarkibiy qismi sifatida o'rganiladi. (G.L.Permyakov, N.M.Shanskiy, V.N.Popov, V.L.Arxangelskiy, L.B.Savenkova)[5].

Religionimlarni mavzuiy guruhlarga ajratib tadqiq qilingan ishlar mavjud. Masalan, M.O.Alekseyeva o'z dissertasion tadqiqot ishida religionimlarni o'n ikkita, L.P.Vodyasova esa yettita mavzuiy guruhlarga ajratadi.

Diniy leksikani izohli lug'atlardan o'rganish tadqiqotchidan o'ziga xos qiyinchilik talab qiladi. So'z dunyo hayotiga xosmi yoki ilohiyotgami aniqlash ba'zan murakab, shuningdek, so'zning asl ma'nosi-

[1] https://www.google.com/search

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент, 2020. – Б. 231; Ислом энциклопедияси / 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёти, 2020. – Б. 11.

[3] Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. – С. Петрбург – Москва, 1907.

[4] Альдингер О.П. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филол. наук: - Смоленск, 2006. – С. 6; Морковкин В.В., Морковкина А.В. Русские агнонимы (слова, которые мы не знаем). – М.: Ин-т русского языка им. А.С.Пушкина, Ин-т русского языка им. В. В. Виноградова РАН, 1997. – 414 с.

[5] Альдингер О.П. Ko'rsatilgan asar. - С.6.

ni ifodalovchi sinonimlarni qo‘llamaslik qiyin masala. Lug‘atlarda “kitobiy so‘z”, “eskirgan so‘z”, “kam qo‘llaniladigan so‘z” kabi stilistik belgilar bilan berilgan, o‘zgarishlarga uchragan diniy so‘zlar bir necha asrlardan buyon qo‘llaniladi.

V.I.Dalning “Tolkoviy slovar jivogo velikorusskogo yazika” lug‘atida 1400 tadan ortiq religionim berilgan bo‘lib, maqollar va matallarda tarkibidagi religionimlar rus xalqining diniy qarashlari, odatlari va irimlari bilan uzviy bog‘liq.

D.N.Ushakov tahriri ostidagi “Tolkoviy slovar russkogo yazika” lug‘atida 500 tadan ortiq religionim to‘plangan bo‘lib, tuzuvchilar mamlakatda mavjud mafkuraviy tartib-qoidalarga rioya qilishlariga to‘g‘ri kelgan.

S.I.Ojegovning mashhur “Tolkoviy slovar russkogo yazika” lug‘atida ham tilshunos cherkov madaniyati hodisalarini ifodalovchi 300 tadan ortiq religionimlarni tasvirlaydi. Hech qanday inqilob yoki farmonlar rus millati tarixi, uning diniy an’analari, maishiy hayotini yo‘qqa chiqarolmasligini muallif o‘zidagi axloqiy va ma’naviy fazilatlar bilan ko‘rsatib berdi.

Ayrim maqollar din vakillarini tarbiya qilish ilmini ko‘rsatadi. Islom dinida odob muhim ijobiy fazilatlardan bo‘lib, ilm olishda, insoniy tarbiyada, ijtimoiy hayotda kishilarga naf beradigan barcha boshqa fazilatlarning debochasi hisoblanadi. Bu mavzudagi maqol va matallarda qatnashgan religionimlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan: *Adabni beadabdan o‘rgan.* Luqmon Hakimdan: “Adabni kimdan o‘rganding?” deb so‘radilar. Luqmon javob berdi: *“Adabni beadablardan o‘rgandim, ularning harakatlaridagi menga maqbul bo‘lmagan narsalardan o‘zimni saqladim”*[1].

Maqoldagi ma’noni ifodalash uchun bir qator boshqa muqobil variantlar mavjud, ular: *“Aqlni aqlsizdan o‘rgan”; “Tamizni betamizdan o‘rgan”, “Aqlli o‘rganar, ahmoq o‘rgatar”, “Odobning nima ekanini odobsizni ko‘rganda bilasan”* kabi maqollarda namoyon bo‘ladi.

Shunday maqollar va matallar mavjudki, ularda diniy soha vakillarini ijtimoiy muammolar tufayli tanqid ostiga olinadi. Masalan: *“Aylanay sallam sendan, hech kim gumon etmas mendan”.* Bu maqol ayrim o‘zi egallab turgan lavozimiga noloyiq, ikkiyuzlamachi, noto‘g‘ri harakatlarini sallasiyu mullaligi bilan bekitmoqchi bo‘lgan diniy ulamolarning noloyiqlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Din xalq hayotiga shu qadar singib ketganki, jamiyat yo‘ldan ozganlarni arvoh urgan deb ta’riflaydi. Islom dini e’tiqodi bo‘yicha, odam vafot etgach, uning ruhi tanasini tark etadi, jasad dafn etiladi, lekin ruh barhayot bo‘ladi va bu dunyoda ortidan qolgan odamlarning har bir bosgan qadamini ko‘rib, har bir qilgan ishidan rozi yoki norozi bo‘ladi. Quyidagi maqolda “arvoh” religionimi shu maqsadda qo‘llanilgan bo‘lib, vafot etgan ajdodlarini noto‘g‘ri ishlaridan xafa bo‘lgan kishilarni “arvoh urgan” deyiladi va ular to‘g‘risida umumjamiyat salbiy fikrda bo‘lishlarini ta’kidlaydi: *Arvoh urgan – o‘ng‘almas.* Bu maqol – e’tiqodiy tushunchaning mahsuli. Marhum ota-onasining vasiyatlariga amal qilmay, yomon yo‘lga kirib ketgan farzandga qarata: “Buni arvoh urgan, bu o‘ng‘almaydi (ya’ni, ishi sira ham oldinga bosmaydi, baraka topmaydi), deydilar.

Shuningdek, o‘zbek tilida bu iboraning bir nechta variantlari mavjud. Masalan: *“Arvoh urganning ishi o‘ng‘almas, Pir urganning kosasi oqarmas”.* O‘tmishda har bir kasb-hunar egalari o‘z “pir”lariga sig‘inardilar, ularga atab turli xayr-ehsonlar, qurbonliklar beradilar, marosimlar o‘tkazadilar, irim-sirim qilardilar. Masalan, dehqonlarning piri – *Bobo Dehqon*; chorvadorlarniki (yilqichilarniki) – *Qambar ota*; sigir boquvchilarniki – *Zangi ota*; qo‘ychilarniki – *Cho‘pon ota*; echki boquvchilarniki – *Saksak ota*; poyafzal tikuvchi kosiblarniki – *Boboi Parado‘z*; chilangarlarniki – *Hasti Dovud* bo‘lgan.

Donishmand xalq o‘z dini tamoyillarini mahkam tutar ekan, shu bilan birgalikda Alloh tomonidan nozil bo‘lgan boshqa dinlar va ularning namoyondalari bo‘lgan payg‘ambarlarning dasturlarini ham rad etmaydi. Buning aksi *“Iso ham o‘z yo‘liga, Muso ham o‘z yo‘liga”* kabi maqollarda ko‘rinadi. Iso – xristianlar payg‘ambari; Muso – yahudiylar payg‘ambari. Har ikkisining tutgan yo‘li o‘ziga xos bo‘lgan, bir-biridan farq qilgan va har ikkisi ham o‘z yo‘lini to‘g‘ri deb bilgan. Mazkur maqol bilan xalq majozan bu dunyoda hammaning o‘z tutgan yo‘li borligini va o‘shani to‘g‘ri deb bilishga asoslari borligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Islom dinining insonparvar din ekani shunda namoyon bo‘ladiki, musulmonlarning ko‘ngliga e’tibor berish, ko‘ngliga tegmaslik, ko‘nglini qoldirmaslik kabi insoniy tuyg‘ularni qadrlash asosiy o‘rinda sanaladi. Bir ko‘ngilni obod qilgan kishini Ka’bani vayron holida topib, uni obod qilish bilan baravar ekanligini musulmon shoirlar she’rlarida targ‘ib qilishadi. Rasulullo alayhissalomdan keltirilgan hadislarda esa, muhaddislar bir kishini ko‘nglini ko‘targan kishi jannat bilan mukofotlanishini qayta-qayta ta’kidlashadi. Bu hadis islom dini vakillarining ijtimoiy hayotida *“Bir ko‘ngil imorati – ming makka ziyorati”* kabi maqol mazmuniga singdirilgan[2]. Xalq bu maqolda yaxshilik qilib, hatto bir kishining ko‘nglini shod va

[1] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз? – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.13.

[2] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз? – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.42.

obod qilish Makkaga yuz marta borib, haj qilib kelishdan ko‘ra yaxshiroq ekanini aytadi.

Azroilning bir turqi – bo‘rida. Azroil jon oluvchi farishta. Diniy tushunchaga ko‘ra, go‘yo xudo biror kishini o‘limga mahkum etsa, Azroilni yuborib uni jonini olarmish[2]. Ushbu maqolda qonxur zolimlar timsoli bo‘lmish bo‘ri Azroil religionimi orqali berilgan.

Kuyovni payg‘ambarlar siylabdi. Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimiz o‘z kuyovlari Hazrat Alini siylagan ekanlar. Mazkur maqol shu asosida kelib chiqqan bo‘lib, kuyovni siylashni anglatgan[3]. Noumid – shayton. Bu maqolning “Umidli – dunyo, noumid – shayton” variant ham bor. Bu e’tiqodiy tushunchaga ko‘ra, shayton xudoga osiy bo‘lgan (isyon ko‘targan), “baribir endi xudo yorlaqamaydi, do‘zaxga solib azoblaydi, endi men doim yomonlikni qilaveraman”, deb noumid bo‘lib, yomon yo‘lga kirib ketgan[4]. Mazkur maqol garchi e’tiqodiy tushuncha asosida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, majozan: “Har bir narsadan umidingni uzma, harakat qil…” degan ma’noda qo‘llaniladi. Ushbu ikki maqolni yuzaga kelishida payg‘ambar, shayton religionimlari muhim o‘rin tutgan.

Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi. Bu paremada duo leksemasi oltindan kam emasligi, ortiq ekanligi ta’kidlanmoqda.

Suv yo‘g‘ida tayammum. Tayammum religionim bo‘lib, islom dinida namoz o‘qishdan oldin tahorat olmoq lozim. Suv yo‘q joyda ikki kaftni tuproqqa urib, betlarga, bilaklarga surtadilar. “Tayammum” deb nomlangan bu tadbir suv bilan qilingan tahorat o‘rniga o‘tadi deyilgan[5].

Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi[6]. Sulaymon religionimi payg‘ambar nomi bo‘ladi. Toshkentning tarig‘ini yegan chumchuq Makkadan keladi. Firibgarga shaytonning ham havasi keladi. Shaytonning ozdirgani o‘ziniki. Aybini bilgan – avliyo. Har kim o‘z aybini bilsa vali(y) bo‘ladi[7]. Bu maqollarda Sulaymon, Makka, shayton, avliyo, vali(y) religionimlari qo‘llanilgan.

Shu va shuning kabi boshqa misollar xalq og‘zaki ijodining asrlar bo‘yi yashab kelayotgan eng faol va umumiste’moldagi keng qo‘llaniluvchi maqollar va matallar o‘zida diniy bo‘yoqdorlikni saqlab qolganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qadriyatlarimiz yo‘qolishi, madaniyatimiz berkitilishiga vaqt aybdor emas, islomiy religionim – diniy leksikani ravon qo‘llash qancha asrlardan buyon bo‘lgan va bundan keyin ham yo‘qolmaydigan kishilarning ichki ma’naviy madaniyat mahsulidir. Bu jarayon turli vaqtlarda, turli siyosat tomonidan tazyiqlarga uchragan islom dini an’analarining din vakillari tilida, faol lug‘atda maqol va matal – islomiy religionim sifatida yashab kelishida yana bir bora namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Mazkur maqolada islomiy religionim – diniy leksika haqida, islom diniga e’tiqod qiluvchi kishilarning ichki ma’naviy madaniyati mahsuli bo‘lgan diniy so‘zlar haqida boradi. Turli vaqtlarda, turli tizim tomonidan tazyiqlarga uchraganligiga qaramasdan islom dini an’analarining din vakillari tilining faol lug‘atida religionimlar sifatida iste’molda bo‘lishi misollarda ko‘rsatib beriladi. Paremalogik religionimlar maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

Rezume. This article is about Islamic religionym – religious lexicon, words that are product of the internal spiritual culture of people who believes in Islam. The examples show that at different times, despite being subjected to pressure from different systems, the traditions of the Islam are used as religionyms in the active vocabulary of the language of religious representatives. Paremalogical religionyms serve as illustrative material for the article.

Резюме. В этой статье речь идет об исламском религиониме - религиозной лексике, религиозных словах, являющихся продуктом внутренней духовной культуры людей, исповедующих ислам. Несмотря на то, что традиции ислама в разное время подвергались давлению со стороны разных систем, на примерах показано, что они используются в качестве религионимов в активном словаре языка представителей религии. Паремалогические религионимы служат в качестве иллюстративного материала статьи.

[1] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз? – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.15.

[2] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз? – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.15.

[3] Шомақсудов Ш. ва бошқ. Кўрсатилган асар. – Б.147.

[4] Шомақсудов Ш. ва бошқ. Кўрсатилган асар. – Б.182.

[5] Шомақсудов Ш. ва бошқ. Кўрсатилган асар. – Б.241.

[6] Шомақсудов Ш. ва бошқ. Кўрсатилган асар. – Б.243.

[7] Шомақсудов Ш. ва бошқ. Кўрсатилган асар. – Б.17.